

**“Open bank” aksiyadorlik jamiyati
Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining
2025-yil 20-oktabrdagi
5-sonli yig‘ilish bayonnomasiga
10 -ilova**

openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>I-94</u>
	Sana: "№ <u>21</u> " <u>oktabr 2025</u> yil

**«OPEN BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATINING
KORPORATIV BOSHQARUV KODEKSI**

Toshkent – 2025-yil.

Mazkur "Open bank" aksiyadorlik jamiyatining korporativ boshqaruv kodeksi" (keyingi o'rinlarda Kodeks deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunlari va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlariga, korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillariga hamda "Open bank" aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda Bank deb yuritiladi) Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Kodeks Bank faoliyatini samarali tashkil etish, xizmatlarni modernizatsiya qilish, yangi turlarini yaratish, raqobatdoshligini ta'minlash va hamkorlar bilan aloqalarni o'rnatish maqsadida Bank Boshqaruvi, Bank Kuzatuv kengashi, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, mehnat jamoasi vakillari va boshqa manfaatdor tomonlar, shu jumladan, kreditorlar o'rtasida mazkur shaxslar manfaati uyg'unligiga erishish tizimini ifodalaydi.

2. Kodeks Bank boshqaruv organlari (Bank Boshqaruvi, Bank Kuzatuv kengashi, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi) ishini samarali tashkil etishning muhim yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar majmuasidan iborat.

3. Kodeks hisobdorlik, ochiqlik, haqqoniylik, yuksak axloqiy tamoyillarga rioya etishni o'z ichiga oluvchi hamda Bankni uzoq muddatli istiqbolda barqaror rivojlantirishni ta'minlashga yo'naltirilgan tegishli boshqaruvning asosiy prinsiplari asosida ishlab chiqilgan.

4. Bank Kodeks tavsiyalarini joriy etish yuzasidan o'zining faoliyat xususiyati hamda faoliyatining o'ziga xosligini hisobga olgan holda ichki korporativ hatti-harakatlarni amalga oshirishi mumkin.

2-bob. Faoliyat ochiqligini ta'minlash

5. Faoliyat ochiqligini ta'minlash maqsadida Bank:


axborotlarni maxfiy axborotlar, tijorat sirlari va aksiyalar narxining o'zgarishiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan boshqa ma'lumotlar toifasiga kiritishning aniq mezonlarini belgilaydi;

oshkor etilishi shart bo'lgan axborotlarning veb sahifa va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa manbalarda e'lon qilinishini ta'minlaydi;

veb-saytda Bank boshqaruv organlari to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qiladi; taqsimlashga taklif etilayotgan sof foyda, dividendlar miqdorining asoslanishi, ularning dividend siyosatiga muvofiqligining baholanishi, shuningdek, zarurat tug'ilganda sof foydaning muayyan qismini Bankni rivojlantirish ehtiyojlariga yo'naltirishning tushuntirilishi va iqtisodiy asoslanishini e'lon qiladi;

aksiyadorlar talabiga ko'ra imkon qadar qisqa muddat ichida aksiyadorga zarur bo'lgan muayyan (maxfiy va tijorat siri bo'lgan axborotlardan tashqari) axborotlarni taqdim etadi.

6. Bank o'z faoliyatining ochiqligini ta'minlash maqsadida quyidagilarni o'z



ichiga olgan Axborot siyosati to'g'risidagi nizom ishlab chiqadi va tasdiqlaydi:

Bank tomonidan ochiq axborotlarni oshkor qilish maqsad va prinsiplari;

veb-saytda oshkor etilishi shart bo'lgan axborotlar ro'yxati, ularni oshkor etish muddati, tartibi va shakli, ular oshkor etiladigan axborot kanallari;

Bank to'g'risidagi oshkor etilishi shart bo'lgan axborotlarni e'lon qilish bo'yicha Bank Boshqaruvining majburiyatlari;

Bank boshqaruv organlari a'zolari, mansabdor shaxslari, Bank xodimlarining aksiyador va investorlar, boshqa manfaatdor shaxslar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari vakillari bilan axborot almashinuv tartibi;

Bankning axborot siyosatiga amal qilishini nazorat qilish bo'yicha chora-tadbirlar.

7. Axborot siyosati to'g'risida nizom Bankning barcha rahbar va xodimlari tomonidan rioya etilishi majburiy bo'lgan hujjat hisoblanadi.

3-bob. Samarali ichki nazorat mexanizmlarini joriy qilish

8. Samarali ichki nazorat mexanizmlarini joriy qilish maqsadida Bank:

Bank Kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizomda uning tarkibiga mustaqil a'zolari kiritish talablarini aks ettiradi. Bunda Kuzatuv kengashi tarkibiga bittadan kam bo'lmagan (ammo Bank Kuzatuv kengashi a'zolari sonining 15 foizidan kam bo'lmagan) mustaqil a'zo kiritish talabi qo'yiladi;

Kuzatuv kengashiga homiylik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) tartibi, shartlarini belgilash hamda bu borada qaror qabul qilish huquqini qonunchilikda belgilangan doirada va bu haqda barcha aksiyadorlar uchun ma'lumotlarni oshkor etgan tarzda beradi;

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga asosan, har yili mustaqil professional tashkilotlar - maslahatchilarni jalb qilgan holda biznes-jarayonlar va loyihalarning Bank rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi yuzasidan tahlil o'tkazishi mumkin;

Bank samarali ichki nazorat tizimini joriy qilishning asosiy maqsadini barcha aksiyadorlar, shu jumladan, minoritar aksiyadorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashni belgilaydi;

Bank Boshqaruvining affillangan shaxslar bilan va yirik bitimlarni mustaqil amalga oshirishi uchun Bankning joriy xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bitimlarni aniqlash masalasini Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi muhokamasiga kiritilishini ta'minlaydi;

Bankning Ichki audit boshqarmasiga 50 foizdan ziyod ulushi Bankka tegishli bo'lgan yuridik shaxslar bilan o'tkazilgan operatsiyalar ustidan nazoratni amalga oshirish vakolatini beradi;

Bank tarkibiga kiruvchi tashkilotlarning boshqaruv organlari yig'ilishlarida o'zining vakillarini Bank nomidan ovoz berish tartibini belgilaydi;

Bank Boshqaruvidan muntazam ravishda jamiyat tarkibiga kiruvchi



openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>I-99</u>
	Sana: "№ 21" <u>oktabr</u> 202 <u>5</u> yil

korxonalar faoliyati yuzasidan ularning tasdiqlangan biznes-rejasiga muvofiq, bajarilgan ishlar va erishilgan ko'rsatkichlar to'g'risida hisobot talab qiladi;

Bank ichki nazorat organlari (Taftish komissiya (taftishchi) va Ichki audit boshqarmasi)ning Bank Kuzatuv kengashi va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi bilan o'zaro hamkorligi to'g'risida nizomni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

9. Bank samarali ichki nazorat tizimini joriy qilish uchun Ichki nazorat siyosatini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi. U quyidagilardan iborat bo'ladi:

Bankning ichki nazorat organi tarkibiga hamda uning a'zolari malakasiga talablar;

ichki nazorat tizimi to'g'risidagi hisobot tarkibi va uni shakllantirish reglamenti;

Bank ichki nazorat organi tizimi samaradorligini baholash uchun mustaqil professional tashkilotlar – maslahatchilarni jalb qilish tartibi;

Ichki nazorat organi ishini monitoring qilish mexanizmlari tavsifi, uning a'zolariga to'lanadigan kompensatsiya va mukofot pullarini hisoblash tartibi.

10. Ichki nazorat siyosati Bankning barcha rahbar va xodimlari tomonidan rioya etilishi majburiy bo'lgan hujjat hisoblanadi.

4-bob. Aksiyadorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirilishini ta'minlash

11. Aksiyadorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirilishini ta'minlash uchun Bank boshqaruv va nazorat organlari:

Bank veb sahifasida yozma va elektron so'rovlarni, shu jumladan, aksiyadorlar o'z aloqa ma'lumotlari va Bank rekvizitlarining o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlarni yuborishi uchun manzil ko'rsatgan holda aksiyadorlarga Bank bilan bog'lanishni yengillashtiradi;

Bank dividendlarni hisoblashning shaffof mexanizmini ochib beruvchi dividend siyosatini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;


Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risidagi nizomda aksiyadorlarga kun tartibi, shu jumladan, Bank Kuzatuv kengashining kun tartibidagi masala bo'yicha pozitsiyasi yuzasidan zarur ma'lumotlarni taqdim etishni nazarda tutadi;

aksiyadorlar va investorlar bilan o'zaro hamkorlik uchun mas'ul xodim yoki bo'linmani belgilaydi;

Bank Boshqaruvi, Bank Kuzatuv kengashi a'zolarini, Taftish komissiya (taftishchi), shuningdek, auditorlik tashkiloti vakilining Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining qarorini qabul qilishda ishtirok etishini ta'minlashi mumkin;

Bank Kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizomda Kuzatuv kengashi a'zosi vazifasini bajarishdan ozod etilishi shartlarini, Bank Kuzatuv kengashi raisining yig'ilishni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq faoliyati tartibi va funksiyasini nazarda tutadi;

Bank aksiyadorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirilishini



ta'minlashga yo'naltirilgan boshqa zarur chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

12. Bank aksiyadorlarining huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirilishini ta'minlash uchun Bank yuqorida qayd etilgan tavsiyalarni aks ettiruvchi zarur ichki qoidalarni qabul qiladi.

5-bob. Uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi va vazifalarni belgilash

13. Uzoq muddatli istiqbolga oid rivojlanish strategiyasi va vazifalarni belgilash uchun Bank boshqaruv organlari:

Bankning strategik maqsadi sifatida aksiyalar narxining o'sishiga olib keluvchi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, mehnat unumdorligi va xizmatlar raqobatdoshligini oshirish, xizmatlarni modernizatsiya qilish va yangilashni amalga oshirishni belgilaydi;

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorida faoliyat xususiyatining o'ziga xosligi, raqobat muhiti tahlili, xorijiy hamkorlar bilan ishlashga yo'naltirilganlik va tegishli soha, tarmoq va hududni rivojlantirish bo'yicha tasdiqlangan davlat dasturlaridan kelib chiqqan holda Bankning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

xorijiy tajribada muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan boshqaruv uslublari, shu jumladan, SWOT, GAP tahlil va boshqa yondashuvlar, maxsus dasturiy mahsulotlar va boshqalarni keng qo'llaydi;

uzoq muddatli strategiya asosida qisqa muddatli (yillik) va o'rta muddatli biznes-rejalar ishlab chiqadi hamda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki Bank Kuzatuv kengashiga tasdiqlash (ma'qullash) uchun kiritadi;

Bankda qabul qilingan har bir rivojlanish rejasi bo'yicha belgilangan maqsadlarga erishish monitoringini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan son va sifat mezonlarini joriy etadi.



14. Bank Kuzatuv kengashi Bank Boshqaruvi, Bank ichki nazorat organi, Bankda tashkil etilgan kollegial organlar faoliyatini muvofiqlashtiradi, zarur bo'lganda, Bank rivojlanish rejasini ishlab chiqishni tashkil etish va unda belgilangan maqsadlarga erishish monitoringi uchun ekspertlarni jalb etadi.

6-bob. Bank Boshqaruvining aksiyadorlar va investorlar bilan o'zaro samarali hamkorligining mexanizmlarini joriy etish

15. Bank Boshqaruvining aksiyadorlar va investorlar bilan o'zaro hamkorligining samarali mexanizmini joriy etish uchun Bank boshqaruv organlari:

aksiyadorlar, Bank boshqaruv va nazorat organlari a'zolari o'rtasida o'zaro ishonch, hurmat, hisobdorlik va nazorat tamoyillari asosidagi hamkorlikni ta'minlaydi;

Bank mansabdor shaxslari tomonidan o'z vazifalarini professional asosda amalga oshirish, qonunchilik hujjatlari, Ustav va Bank boshqaruv organlari qarorlaridan kelib chiquvchi barcha majburiyatlarni vijdonan va oqilona bajarishi.



to'g'risidagi talablarni joriy etadi;

Bank Kuzatuv kengashi a'zoli uchun nomzodlarga malaka talablarini belgilaydi (qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan holatlardan tashqari);

Bank Kuzatuv kengashi qoshida tegishli masalalar, shu jumladan, nizoli vaziyatlarni aniqlash va hal etish bo'yicha qo'mitalar tashkil etadi;

Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishlarini so'rov o'tkazish yo'li bilan, shuningdek, videokonferens-aloqa rejimida o'tkazish holatlari va tartibini belgilaydi;

Bank Kuzatuv kengashi, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Bank Ustavi va rivojlanish rejasi tomonidan qo'yilgan vazifalarning so'zsiz bajarilishi uchun Bank Boshqaruvi vakolatiga kiruvchi masalalarni u tomonidan mustaqil hal etish talabini joriy etadi;

Bank mansabdor shaxslarining malakasini o'quv kurslari, seminarlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etish orqali oshiradi;

Bank faoliyatida korporativ qonunchilik talablariga rioya etilishini nazorat qilishga mas'ul bo'lgan va Bank Kuzatuv kengashiga hisobot beruvchi Korporativ maslahatchi lavozimini joriy etadi;

Bank Kuzatuv kengashi a'zolarining mukofot puli miqdorini Bank moliyaviy natijalari va korporativ boshqaruv tizimining mustaqil baholanishi natijalari bilan bog'laydi.

16. Bank Boshqaruvining aksiyadorlar va investorlar bilan o'zaro samarali hamkorligi mexanizmlarini joriy etish uchun Bank yuqorida qayd qilingan tavsiyalarni aks ettiruvchi zarur ichki qoidalarni qabul qiladi.

7-bob. Manfaatlar qarama-qarshiligi

17. Manfaatlar qarama-qarshiligi bilan bog'liq vaziyatlar yuzaga kelishining oldini olish va nizoli vaziyatlarni bartaraf etish uchun Bank o'z ichiga quyidagilarni oluvchi manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish siyosatini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi:

Bank mansabdor shaxslarining Bank manfaatini ko'zlab faoliyat yuritish majburiyati;

Bank mansabdor shaxslari tomonidan harakat va bitim amalga oshirilganda yoki ular tomonidan axborot oshkor qilinganda manfaatlar qarama-qarshiligiga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni aniqlash;

Bank mansabdor shaxslarining Bank Kuzatuv kengashini manfaatlar qarama-qarshiligi yuzaga kelishi to'g'risida xabardor qilish majburiyati;

Bank Kuzatuv kengashining ruxsatisiz Bank mansabdor shaxslarining boshqa yuridik shaxslarning boshqaruv va nazorat organlarida ishtirok etishini taqiqlash;

Bank mansabdor shaxslari tomonidan harakat va bitim amalga oshirilganda yoki ular tomonidan axborot oshkor qilinganda manfaatlar qarama-qarshiligiga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarning oldini olish;



manfaatlar qarama-qarshiligi bilan bog'liq nizoli vaziyatlarni hal etishning, shu jumladan, ularni hal etish uchun manfaatdor bo'lmagan uchinchi shaxsni tayinlash yoki manfaatlar qarama-qarshiligini hal qilish bo'yicha vakolatni Bank Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi (a'zolari)ga yuklashning batafsil reglamenti.

8-bob. Namunaviy tashkiliy tuzilmani joriy etish

18. Namunaviy tashkiliy tuzilmani joriy etish uchun Bankda:

Bankning tarkibiy tuzilmasiga amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan qo'yilgan talablaridan kelib chiqib tuzilishi ta'minlanadi;

tashkiliy tuzilmani ishlab chiqish va joriy etishda Bank faoliyatining miqyosi, tarmoq xususiyati va yo'nalishi hisobga olinadi;

Bankning amaldagi tashkiliy tuzilmasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligining muntazam baholanishi tashkil etiladi;

Bankning boshqaruv lavozimlariga nomzodlarining ishtirok etishiga imkon yaratiladi;

rahbar lavozimlarga yangicha fikrlovchi, zamonaviy talablarga javob beruvchi yuqori malakaga ega bo'lgan, shuningdek, xorijiy menejerlarni tanlab olish jarayonlari bayon etiladi.

19. Bank Kuzatuv kengashi tashkiliy tuzilmani ishlab chiqish, joriy etish va muntazam baholanishi bo'yicha ishlarning qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiq tarzda amalga oshirilishini muvofiqlashtirishni ta'minlaydi.

9-bob. Axborotlarni audit va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida e'lon qilish

20. Axborotlarni audit va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida e'lon qilish uchun Bankda:


Bank Kuzatuv kengashi yillik moliyaviy hisobotlarni Moliyaviy hisobotlarning hisobot standartlariga (keyingi matnlarda MHXS deb yuritiladi) muvofiq tarzda e'lon qilishga o'tish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarni muvofiqlashtiradi;

Bankning yillik moliyaviy hisobotlarni MXHSGa muvofiq tarzda e'lon qilishga o'tish masalalari bo'yicha Ichki audit boshqarmasi, Bank Kuzatuv kengashi a'zolari, Bankning mas'ul mansabdor shaxslari va jalb etilgan ekspertlar (zarur hollarda)dan iborat ishchi guruhi tuziladi;

yillik moliyaviy hisobotlarni MXHSGa va auditning xalqaro standartlari asosida e'lon qilishga o'tishda malakali xizmat ko'rsatish uchun auditorlik yoki konsalting tashkiloti jalb etiladi;

auditorlik tashkiloti bilan hamkorlikda Bankning yillik moliyaviy hisobotlarni MXHSGa va auditning xalqaro standartlari asosida e'lon qilishga o'tishning bosqichli algoritmi (tadbirlar rejasi) ishlab chiqiladi va Bank Kuzatuv kengashining yig'ilishida tasdiqlanadi;

audit o'tkazish va moliyaviy hisobotlarni tuzishga jalb etilgan Bank xodimlari



Eshib Berilgan	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>I-99</u>
	Sana: "№ 21" <u>oktabr</u> 20 <u>25</u> yil

MXHS va auditning xalqaro standartlari bo'yicha o'quv kurslarida o'qitiladi;

Bankning yillik moliyaviy hisobotlarni MXHSga va auditning xalqaro standartlariga muvofiq tarzda e'lon qilishga o'tish bo'yicha tegishli rejada ko'zda tutilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi;

Bankning yillik moliyaviy hisobotlari MXHSga va auditning xalqaro standartlariga muvofiq tarzda qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlarda e'lon qilinadi.

10-bob. Kodeks tavsiyalarini joriy etish monitoringi

21. Kodeks tavsiyalarini joriy etish monitoringini amalga oshirish uchun Bank korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazishi mumkin, bu ishni amalga oshirish uchun mustaqil tashkilotni jalb qilish tavsiya etiladi.

22. Bankda korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash Bankka mulkiy munosabat orqali bog'liq bo'lmagan tashkilot bilan tegishli shartnoma asosida amalga oshiriladi.

23. Bankda korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholashni quyidagi tashkilotlar o'tkazishi mumkin:

fond birjasi;

qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari;

shtatida tegishli korporativ boshqaruvchi yoki qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassisi attestati bo'lgan auditorlik tashkilotlari;

akkreditatsiyadan o'tgan reyting agentliklari;

Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim markazi;

Xususiylashtirish, raqobatni va korporativ boshqaruvni rivojlantirish muammolari tadqiqotlari markazi;

qonunchilikda ruxsat etilgan boshqa tashkilotlar.

24. Korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish uchun mustaqil tashkilotni tanlash Bank Kuzatuv kengashining qarori bo'yicha tanlov asosida o'tkaziladi.


25. Bankda o'tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalari Bank veb sahifasida shunday baholashni o'tkazgan tashkilot xulosasi bilan birgalikda e'lon qilinadi.

11-bob. Yakuniy qoidalar

26. Mazkur Kodeksga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

27. Mazkur Kodeks bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

28. Ushbu Kodeksning alohida bandlari amaldagi qonunchilik hujjatlariga zid bo'lsa, ushbu bandlar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu bandlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari normalariga amal qilinadi.

 8

Ro'yxatdan o'tkazildi
Ro'yxat raqami: 159
Sana: "21" oktabr 2024 yil

YURIDIK XULOSA
(ichki qoidani huquqiy ekspertizadan o'tkazish to'g'risida)

Toshkent shahar

“ 07 ” 10 2025 yil

Ekspertiza o'tkazuvchi: “Open bank” aksiyadorlik jamiyatning (keyingi o'rinlarda “Bank” deb yuritiladi) Yuridik boshqarmasi.

Ekspertizadan o'tkazilgan me'yoriy hujjat nomi: “Open bank” aksiyadorlik jamiyatining korporativ boshqaruv kodeksi (keyingi o'rinlarda “ichki qoida” deb yuritiladi).

Ekspertiza o'tkazishda foydalanilgan qonunchilik va me'yoriy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonunlari, Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo'yiladigan talablar to'g'risida nizomi va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlari, hamda “Open bank” aksiyadorlik jamiyatning ustavi va boshqa ichki me'yoriy hujjatlar (keyingi o'rinlarda “qonunchilik va me'yoriy hujjatlar”).

Mazkur ichki qoida qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Bankning faoliyatini samarali tashkil etish, xizmatlarni modernizatsiya qilish, yangi turlarini yaratish, raqobatdoshligini ta'minlash va hamkorlar bilan aloqalarni o'rnatish maqsadida Bank Boshqaruvi, Bank Kuzatuv kengashi, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, mehnat jamoasi vakillari va boshqa manfaatdor tomonlar, shu jumladan, kreditorlar o'rtasida mazkur shaxslar manfaati uyg'unligiga erishish tizimini ifodalaydi.

Ushbu ichki qoida ishlab chiqishda qonunchilik texnikasi qoidalariga rioya qilingan.

Mazkur ichki qoida, agar unda boshqa muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, Bankning aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan kunning ertasidan kuchga kiradi.

Ushbu ichki qoidaga o'zgartirish va qo'shimchalar Bankning aksiyadorlarning umumiy yig'ilishning qarori asosida kiritiladi.

Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlarida ishlab chiqilishi belgilangan ichki qoidalar, shuningdek ularga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar tijorat banklari tomonidan tasdiqlangandan so'ng 15 (o'n besh) kun ichida Markaziy bankka taqdim etilishi kerak.

“Open bank” aksiyadorlik jamiyatning
Yuridik boshqarmasi boshlig'i
S.I. Salimov